

O'zbekiston tarixini o'rganishda Prezident I.A.Karimov asarlaridan ihtiboslar va ko'chirmalar keltirish usullari va foydalanish yo'llari

R.Xolmatov.G.Erkaboyeva

O'zbekiston ko'hna va boy tarixga ega bo'lgan yangi mustaqil davlatdir.O'zbek davlatchiligi tarixi "oz ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladigan va uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladi.O'zbek xalqi qadimdan shu zaminda yashab,sharqona urf-odatlar,an'analar o'zbeklarga xos insonparvarlik,mehr oqibatli, iymon-insofli bo'lib kelgan".

Hur O'zbekistondagi barcha o'zgarishlar yurtboshimiz I.A.Karimov bilan bog'liq. Siyosatshunos N.Jo'rayev ta'biri bilan aytganda,yurtboshimiz I.A.Karimov "barcha fanlar konsepsiyasiga yangilik olib kirdilar".Prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"(1998) "Ozbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"(2011)kabi asarlarida Vatan tarixiga uni o'qib o'rganishga juda katta e'tabor qaratdi.Ayniqsa, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"asari Vatan tarixini o'rganish uchun metodologik asos bo'ldi.

Umumta'lim maktablarida o'qituvchilar "O'zbekiston tarixi"faniga oid darslik bilan cheklanib qolmasdan,Prezident I.A.Karimovning asarlaridan,unda keltirilgan pand-nasihatlardan foydalanib borsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.Masalan,6-sinf "O'zbekiston tarixi"fanidan "Zardushtiylik"mavzusini o'rganish jarayonida O'zbekiston tarixining ilk davlatchilik tarixiga oid manbalar bilan birga "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"asaridan o'quvchilarga 10-betdagi "Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto "ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat.buyuk madaniyat,buyuk ma'naviyat bo'lganligidan guvoh beruvchi tarixiy hujjatdirki uni heh kim inkor etolmaydi".degan fikrlarni o'quvchilarga tushuntirib berish orqali Farb olimlari va jurnalistlarini "Avesto"ni eslamasliklarini ta'kidlab o'tadi.7-sinfdagi "Amir Temur va temuriylar davlati"mavzusini o'qitish jarayonida Amir Temur qoldirgan moddiy meros,vasiyatlari bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o'ziga xos yo'lini ko'rsatishda ahamiyatini yo'qotgan emas.Yurtboshimiz I.A.Karimov "...Amir Temur tuzuklarini o'qisam,bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topganday bo'laman,"deb yozishi bejiz emas.Binobarin Prezidentimiz milliy g'urur bilan ta'kidlaganlaridek: "...bizning tariximizda Amir Temurdek ulug' siymo bor ekan uning qoldirgan merosi, pand-u o'g'itlari bugungi hayotimizda hamohang, oldimizda turgan muammolarni echishda bizga qo'l kelayotgan ekan,bizni bu merosni o'rganmasdan,ta'riflamasdan,targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q".

Bobomiz Amir Temur 35 yillik hukmronligi yillarida o'zi ko'rgan,bilgan va qo'llagan usullarini jamlab yozgan "Temur tuzuklari"da davlatni idora etish. uni boshqarish, adolatli jamiyat qurish nazariyasini olg'a suradi.Yurtboshimiz I.A.Karimov Amir Temurning "Kuch-adolatda"degan fikrini rivojlantirib, "Kuch-bilim va tafakkurda"degan g'oyani ilgari surdilar.

Ayniqsa, Mustaqillik yillaridagi O'zbekiston tarixidan yuqori sinfda "Milliy davlat boshqaruvida tub o'zgarishlar"mavzusini o'tish jarayonida "O'zbekiston XXIASr bo'sag'asida"asarida keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida milliy davlatchilikni shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini barpo etishga demokratik qadriyatlar sifatida o'ziga xos ustivorlik beriladi"degan fikrlarini misol qilib keltirish mumkin.

Yoki "Bozor munosabatlarining shakllanishi"mavzusini o'tish jarayonida Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston –bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li" va "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida"nomli asarlarida respublikamizda xalqning moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish yo'lida olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning maqsadi va strategiyasining ilmiy nazariy va amaliy tomonlari yoritib berilgan ko'rsatmalardan foydalanish mumkin.

Ushbu asarlar va yurtboshimizning iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab jahon anjumanlarda so'zlagan nutqlari, turli mamlakatlarning tadbirkor va ishbilarmonlari bilan bo'lgan suhbatlarida aytgan fikr mulohazalari bozor iqtisodiyoti nazariyasiga qo'shilgan salohiyatli ilmiy amaliy hissadir.

Yurtboshimizning Oliy Majlisning VI sessiyasida (1996yil 29 avgust)so'zlagan nutqida hozirgi bosqichda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari bayon etilgan:

“Provard maqsadimiz ijtimoiy yo`naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotini ochiq tashqi siyosatga ega bo`lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir”.Ushbu yo`lni amalga oshirishda iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga beshta muhim va mashhur tamoyil asos qilib olingan bo`lib,o`tish davrining siyosati ana shu tamoyillarga tayanadi.

Darslikda “O`zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi” mavzusi mavjud.I.A.Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”nomli asarida xavfsizlikni saqlash,barqarorlikni ta`minlash,taraqqiyot yo`lida sobit qadamlik bilan rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin,degan savol beriladi.Ayniqsa, “Mintaqaviy mojarolar va halqaro terrorizm”bobida Prezidentimizni “Yer yuzidan “Sovuq urush” vasvasasi yo`qoldi,biroq endi mamlakatlararo mintaqaviy nizolar,ma`lum bir hududlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar butun dunyo taqdirini belgilaydigan ulkan xavfga aylanishi mumkin”degan fikrga kelib, “insoniyat hayotiga tahdid soluvchi xalqaro terrorizmga qarshi kurashishi butun omma oldidagi kechiktirilmas vazifa”ekanligini ta`kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda umumta`lim maktablarida,akademik litsey kasb-hunar kollejlarda O`zbekiston tarixini o`rganishda Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan,ularda keltirilgan ihtiboslardan kengroq foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.T...Sharq 1998.
- 2.Karimov I.A.O`zbekistonnig o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.T... 1993.
- 3.Karimov I.A.Yuksak ma`naviyat engilmas kuch.T... Ma`naviyat,2008.